



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'lqin qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ilhom Safarboyevich Shukurov

Tashkent davlat iqtisodiyoti universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida dotsenti v.b., PhD
Email: ilhombekshukurov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash jarayonida tavakkalchiliklarni boshqarish masalalarini nazariy asoslash, metodologik yondashuvlarni takomillashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida xizmat ko'rsatish sohasida, xususan mehmonxona xo'jaligi faoliyatida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy risk omillari aniqlanib, ularni baholashning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada xizmat ko'rsatish korxonasining moliyaviy barqarorligini baholash uchun integral ko'rsatkichni hisoblashga asoslangan iqtisodiy-matematik model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, tarmoqlar boshqaruvi, boshqaruv risklari, risklarni kamaytirish.

Abstract: This article provides a theoretical basis for risk management in ensuring the financial stability of service industry enterprises, improving methodological approaches, and developing practical recommendations. The study identified the key risk factors affecting financial stability in the service sector, particularly in the hotel industry, and analyzed modern assessment methods. The article also proposes an economic and mathematical model based on the calculation of an integrated indicator for assessing the financial stability of a service industry enterprise.

Keywords: Service industry, industry management, risk management, risk mitigation.

Абстрактный: Данная статья посвящена теоретическому обоснованию вопросов управления рисками в процессе обеспечения финансовой стабильности предприятий сферы услуг, совершенствованию методологических подходов и разработке практических рекомендаций. В рамках исследования были выявлены основные факторы риска, влияющие на финансовую стабильность в секторе услуг, в частности в гостиничном бизнесе, и проанализированы современные методы их оценки. В статье также предложена экономико-математическая модель, основанная на расчете интегрального показателя оценки финансовой стабильности предприятия сферы услуг.

Ключевые слова: Сфера услуг, управление отраслью, управление рисками, снижение риска.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. U YIM, bandlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga xizmatlar sohasida boshqaruv jarayonlarida yuzaga keladigan turli risklar moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi va iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini tartibga solish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-sonli qaror¹ xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va shu sohada iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan strategik hujjat hisoblanadi.

Ushbu qaror doirasida xizmatlar sohasining yirik shaharlarda va hududlarda faoliyatini kengaytirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xizmat ko'rsatish turlarini diversifikatsiya qilish yo'nalishlari belgilangan. Shu tarzda maqola kontekstida xizmat ko'rsatish sohasini boshqarishda risklarni kamaytirish mexanizmlari bilan bir qatorda, mavjud normativ hujjatlar orqali ham xizmat sektori faoliyatining tartibga solinishi va boshqaruv asoslari aniqlanadi. Bu esa tadqiqotni nafaqat nazariy, balki amaliy — davlat siyosati nuqtayi nazaridan ham mustahkamlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Har yili rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar ishlab chiqarishining ulushi tobora ortib bormoqda. Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash muammosini o'rganish mazkur sohaning rivojlanishidagi muhim

jihatlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning bozor sharoitlari hamda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari (XSK) faoliyatini moliyaviy ta'minlash bilan bog'liq muammolar moliyaviy-iqtisodiy siyosatni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, inqirozli vaziyatlarda XSKlarning faoliyat yuritishi va ularning keyingi iqtisodiy o'sishini ta'minlash maqsadida moliyaviy holatni sifatli baholashni taqozo etadi.

So'nggi o'n yilliklarda xizmatlar sohasi (XS) innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishning muhim manbaiga aylandi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlarda xizmatlar sohasi jami bandlik va yalpi ishlab chiqarish hajmining qariyb to'rt dan uch qismini tashkil etadi. Shu sababli, XS iqtisodiyotning eng yirik sektori ekanligini inobatga olgan holda, bir tomondan, postindustrial iqtisodiyotga o'tish mexanizmini tushuntirish, ikkinchi tomondan esa, tarkibiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgan omillarni o'rganish zarurati yuzaga keladi. Mazkur holatlar AQSh iqtisodiyoti misolida yaqqol namoyon bo'ladi. 1810-yilda AQShda qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lganlar ulushi taxminan 80 foizni tashkil etgan bo'lsa, ikki yuz yildan so'ng bu ko'rsatkich 1,5 foizga tushgan. Xizmatlar sohasida band bo'lganlar ulushi esa 1810-yilda 10 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib jami bandlikning 80 foizini tashkil etgan [2].

Korxonaning moliyaviy holatini baholash iqtisodiy tahlilning ajralmas qismi bo'lib, u holda har qanday xo'jalik yurituvchi subyekti faoliyatini oqilona boshqarish mumkin emas. Acharya va boshqalar (2017), moliyaviy barqarorlik muammosini o'rganish va rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shishgan [3]. Biroq xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining moliyaviy barqarorligini o'rganish uchun faqatgina retrospektiv moliyaviy axborotlar yetarli emas. Baholashning asosi moliyaviy barqarorlikning hisoblangan ko'rsatkichlari bo'lib, ular asosan modellashtirish orqali olinadi. Korxonalar faoliyatini moliyaviy tahlil qilishda modellar, usullar va axborot texnologiyalarini joriy etishga

¹ <https://lex.uz/docs/-5421233>

bag'ishlangan tadqiqotlar qatoriga Adrian kiradi [4]. Ushbu mualliflar korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqqanlar.

Zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan matematik modellar yordamida moliyaviy barqarorlikni hisoblash tizimini yaratish murakkab bo'lishiga qaramay, ushbu tizim yuqoridagi muammolarni hal etishda kuchli vosita hisoblanadi. Bu holat xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining barqaror moliyaviy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan asosiy nazariy yondashuvlar va amaliy usullarni yanada rivojlantirish zaruratini belgilaydi. Shu bilan birga, faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan XSKlarning moliyaviy barqarorligini boshqarish masalalarini mazkur olimlarning ishlarida yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash modellarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib, mazkur tadqiqotning mavzusi, maqsadi va vazifalarini belgilaydi. Korxonalarining moliyaviy holatini baholashning metodologik yondashuvlaridan biri koeffitsiyentlar tahlilidir. Moliyaviy holatni koeffitsiyentlar usuli orqali tahlil qilishning mohiyati balans aktivlari va majburiyatlarining mutlaq ko'rsatkichlari asosida nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblashdan iborat [5].

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili ularning qiymatlarini bazaviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, shuningdek, hisobot davri va bir necha yil davomida dinamikasini o'rganishni nazarda tutadi. Bunda bazaviy qiymatlar sifatida o'tgan yil ko'rsatkichlari, tarmoq bo'yicha o'rtacha qiymatlar yoki eng istiqbolli korxonalarining ko'rsatkichlari olinishi mumkin [6]. Bundan tashqari, moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan optimal yoki kritik (chegaraviy) qiymatlarni ifodalovchi nazariy asoslangan yoki ekspert baholari asosida aniqlangan ko'rsatkichlar ham solishtirish bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarining moliyaviy holatini koeffitsiyentlar asosida tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar mavjud [7]. Ushbu ishlarda korxonaning ma'lum faoliyat davri uchun bir qator moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash va ularni boshqa korxonalar yoki kritik qiymatlar bilan taqqoslash taklif etiladi. Biroq mikro darajada samaradorligi isbotlangan tahliliy usullar umumlashtirilgan axborotni tahlil qilishda har doim ham maqbul yoki samarali bo'lavermaydi [8]. Agar tadqiqotchi uchun korxonaning moliyaviy holatini ma'lum davr mobaynida yoki raqobatchilari bilan solishtirganda qanday o'zgariganini bilish yetarli bo'lsa, mintaqaviy darajadagi moliyaviy holat tahlili ancha murakkab va keng qamrovli vazifalarni o'z ichiga oladi [9]. Buning uchun, birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy holatining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi va umumiy rivojlanish tendensiyalaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beruvchi kam sonli kompleks ko'rsatkichlar zarur. Ikkinchidan, faoliyat turi, hudud yoki mulkchilik shakliga ko'ra guruhlangan korxonalarni taqqoslash uchun foydalaniladigan ushbu ko'rsatkichlarning bazaviy qiymatlarini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish talab etiladi [10].

Moliyaviy barqarorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Moliyaviy jihatdan barqaror korxonaga investitsiyalarni jalb qilish, kredit olish, yetkazib beruvchilarni tanlash va malakali kadrlarni jalb etishda bir xil profildagi boshqa korxonalariga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Bundan tashqari, bunday korxonada davlat va jamiyat oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradi, byudjetga soliqlarni, ijtimoiy fondlarga ajratmalarni, xodimlarga ish haqi va aksiyadorlarga dividendlarni to'laydi hamda banklar oldidagi kredit majburiyatlarini bajarilishini kafolatlaydi. Korxonaga moliyaviy barqarorligi qanchalik yuqori bo'lsa, u bozor sharoitidagi kutilmagan o'zgarishlarga shunchalik kam bog'liq bo'ladi va bankrotlik xavfi shunchalik past bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)

Mazkur tadqiqot xizmat ko'rsatish korxonasining moliyaviy barqarorligini boshqarishda tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va minimallashtirishga qaratilgan bo'lib, unda iqtisodiy tahlil va matematik modellashtirishga asoslangan metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasiga oid korxonalarining moliyaviy hisobot ma'lumotlari axborot bazasi sifatida qabul qilindi. Moliyaviy barqarorlikni baholashda koeffitsiyentlar tahlili usuli qo'llanilib, korxonaning likvidlik, moliyaviy mustaqillik, rentabellik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida xizmat ko'rsatish korxonasining moliyaviy holatini tavsiflovchi integral baholash yondashuvi shakllantirildi.

Tadqiqotda tavakkalchiliklarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish, taqqoslama tahlil, dinamik tahlil hamda sistemali yondashuv usullaridan foydalanildi. Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda statistik tahlil elementlari qo'llanildi.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda tavakkalchiliklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarishda induksiya va deduksiya, umumlashtirish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlashga va amaliy boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

Miqdoriy ma'lumotlar asosida tuziladigan nazorat grafiklarida tanlama ichidagi og'ishlarning normal (Gauss) taqsimotga ega bo'lishi muhim metodologik shart sanaladi. Chunki nazorat chegaralarini hisoblashda qo'llaniladigan koeffitsiyentlar aynan ushbu taqsimot asosida aniqlanadi. Shu bilan birga, amaliyotda nazorat chegaralari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda empirik mezon sifatida ishlatilgani sababli, kichik og'ishlarni e'tibordan chetda qoldirish maqsadga muvofiqdir. Markaziy limit teoremasiga ko'ra, tanlama hajmi oshgan sari tanlama o'rtachalarining taqsimoti normal qonunga yaqinlashadi, bu esa hatto kichik tanlamalar (4-5 birlik) uchun ham normal taqsimot farazini qo'llash imkonini beradi. Nazorat grafiklari jarayonni ikki asosiy jihatdan tavsiflaydi: ko'rsatkichlarning tarqoqligi va jarayon markazining holati. Shu sababli ular odatda juft holda qo'llaniladi — X-grafiklar jarayonning o'rtacha qiymatini, R-grafiklar esa o'zgaruvchanlik darajasini aks ettiradi. Ushbu grafiklar yordamida moliyaviy ko'rsatkichlarning nazorat chegaralari hisoblanib, ularning belgilangan limitlarga nisbatan holati tahlil qilindi. Hisoblash natijalari 1-jadval va 2-jadvalda umumlashtirilgan.

Jarayonni boshqarishning samaradorligini ta'minlash uchun, Shewhart nazorat diagrammalari (X-R va X-s diagrammalari) yordamida jarayonning statistik boshqaruv holati aniqlanadi. Ushbu usul yordamida jarayonda mavjud bo'lgan maxsus (tasodifiy bo'lmagan) sabablar tufayli vujudga keladigan o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlash imkoniyati yaratiladi. Maxsus sabablar tizimli tarzda bartaraf etilgach, jarayon statistik jihatdan boshqariladigan holatga keladi va bu holatda sifat ko'rsatkichlari barqaror bo'ladi.

Bunday holatda mahsulot sifati prognoz qilinadigan bo'ladi va jarayonning texnik reglamentlarda belgilangan talablarni bajarish qobiliyati baholalanadi. Jarayon quvvatini aniqlash uchun faqat umumiy sabablar bilan bog'liq tabiiy tarqoqlik (eng kichik o'zgaruvchanlik) hisobga olinadi. Jarayon statistik nazorat ostiga olingandan so'ng, 25 ta va undan ortiq subguruhlarda barqarorlik kuzatilsa, jarayon quvvati ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

1-jadval

Shewhart diagrammalari uchun nazorat chegaralarini hisoblash formulalari

Statistiklar	Standart qiymatlar o'rnatilmagan		Standart qiymatlar o'rnatilgan	
	CL (markaziy chiziq)	UCL va LCL (yuqori va pastki chegaralar)	CL (markaziy chiziq)	UCL va LCL (yuqori va pastki chegaralar)
\bar{X}	\bar{X}	$\bar{X} \pm A_2R$ yoki $\bar{X} \pm A_3\bar{s}$	X_0 yoki μ	X_0 yoki $A_6\delta_0$
R	\bar{R}	$D_3\bar{R}$, $D_4\bar{R}$	R_0 yoki $d_2\delta_0$	D_1, δ_0 , $D_2\delta_0$
s	\bar{s}	$B_3\bar{s}$, $B_4\bar{s}$	S_0 yoki $c_4\delta_0$	B_5, δ_0 , $B_6\delta_0$

Izoh: X — o'lchangan sifat ko'rsatkichi; R — subguruhdagi eng katta va eng kichik qiymatlar farqi;

s — tanlangan (kvadrat o'rtacha) og'ish; δ_0 — haqiqiy guruh standart og'ish;

A, B, C, D — nazorat chegaralari koeffitsiyentlari;

CL — markaziy chiziq; UCL — yuqori nazorat chegarasi; LCL — pastki nazorat chegarasi.

1-jadvalda keltirilgan formulalar yordamida jarayonning markaziy chizig'i (CL) va nazorat chegaralari (UCL, LCL) aniqlanadi.

Bu chegaralar jarayonning tabiiy o'zgarish chegaralarini aks ettiradi va jarayonning statistik boshqaruv holatiga erishilgan yoki yo'qligini kuzatish imkonini beradi. Nazorat chiziqlari koeffitsiyentlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Nazorat chiziqlarini hisoblash uchun koeffitsientlar²

№	Nazorat limitlarini hisoblash uchun koeffitsientlar							Markaziy chiziqni hisoblash uchun koeffitsientlar							
	A	A2	A3	B3	B4	B5	B6	D1	D2	D3	D4	C4	1/C4	d2	1/d2
1	2.121	1.880	2.659	0.000	3.267	0.000	2.606	0.000	3.686	0.000	3.267	0.7979	1.2533	1.128	0.8865
2	1.732	1.023	1.954	0.000	2.568	0.000	2.276	0.000	4.358	0.000	2.574	0.8862	1.1284	1.693	0.5907
3	1.500	0.729	1.628	0.000	2.266	0.000	2.088	0.000	4.698	0.000	2.282	0.9213	1.0854	2.059	0.4857
4	1.342	0.577	1.427	0.000	2.089	0.000	1.964	0.000	4.918	0.000	2.114	0.9400	1.0638	2.326	0.4299
5	1.225	0.483	1.287	0.030	1.970	0.029	1.874	0.000	5.078	0.000	2.004	0.9515	1.0510	2.534	0.3946
6	1.134	0.419	1.182	0.118	1.882	0.113	1.806	0.204	5.204	0.076	1.924	0.9594	1.0423	2.704	0.3698
7	1.061	0.373	1.099	0.185	1.815	0.179	1.751	0.388	5.306	0.136	1.864	0.9650	1.0363	2.847	0.3512
8	1.000	0.337	1.032	0.239	1.761	0.232	1.707	0.547	5.393	0.184	1.816	0.9693	1.0317	2.970	0.3367
9	0.949	0.308	0.975	0.284	1.716	0.276	1.669	0.687	5.469	0.223	1.777	0.9727	1.0281	3.078	0.3249
10	0.905	0.285	0.927	0.321	1.679	0.313	1.637	0.811	5.535	0.256	1.744	0.9754	1.0252	3.173	0.3152
11	0.866	0.266	0.886	0.354	1.646	0.346	1.610	0.922	5.594	0.283	1.717	0.9776	1.0229	3.258	0.3069
12	0.832	0.249	0.850	0.382	1.618	0.374	1.585	1.025	5.647	0.307	1.693	0.9794	1.0210	3.336	0.2998
13	0.802	0.235	0.817	0.406	1.594	0.399	1.563	1.118	5.696	0.328	1.672	0.9810	1.0194	3.407	0.2935
14	0.775	0.223	0.789	0.428	1.572	0.421	1.544	1.203	5.741	0.347	1.653	0.9823	1.0180	3.472	0.2880
15	0.750	0.212	0.763	0.448	1.552	0.440	1.526	1.282	5.782	0.363	1.637	0.9835	1.0168	3.532	0.2831

² Muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat grafiklari xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy holatidagi beqarorlik belgilarini erta aniqlash, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkonini beradi. Bu esa korxonaning barqaror moliyaviy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa (Conclusion, Заключение)

Ushbu tadqiqotda xizmat ko'rsatish korxonalarini moliyaviy barqarorligini baholash muammosi har tomonlama o'rganilib, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirishga qaratilgan yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi. Moliyaviy barqarorlikni baholash jarayonining barqarorligi va boshqariluvchanligini tahlil qilish maqsadida har bir moliyaviy koeffitsient uchun nazorat grafiklari turi aniqlanib, ularning jarayon o'zgaruvchanligiga ta'siri o'rganildi. Har bir koeffitsient bo'yicha Shewhart nazorat grafiklari tuzilib, moliyaviy barqarorlikni baholash jarayonida yuzaga keladigan maxsus (tasodifiy bo'lmagan) sabablar aniqlab chiqildi.

Moliyaviy barqarorlikni kompleks baholashda mezonlar ko'pligini hisobga olgan holda, xizmat ko'rsatish korxonasi uchun ekspert tizimi asosida modellashtirilgan dasturiy yechimdan foydalanildi. Ushbu tizim moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi koeffitsientlarni avtomatik hisoblash, ularni tahlil qilish hamda integral moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, mijozlar segmentatsiyasi va moliyaviy holatni tahlil qilishda Kohonen xaritalar

(Kohonen maps) metodologiyasi tatbiq etildi. Bu usul xizmat turlarini moliyaviy samaradorlik nuqtayi nazaridan guruhlariga ajratish, muammoli klasterlarga o'tish xavfini kamaytirish yoki yaxshi moliyaviy tuzilmalarga o'tishni ta'minlash imkonini beradi. Natijada, neyron tarmoqlar apparati yordamida korxonalar faoliyatining eng daromadli yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, har bir xizmat ko'rsatish obyektining moliyaviy holatini baholash imkoniyatlari yaratildi.

Global moliyaviy-iqtisodiy beqarorlik sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun o'z moliyaviy faoliyatini barqarorlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, istiqboldagi tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

- korxonaning moliyaviy holati ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish va tezkor tahlil mexanizmlarini takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatish tarmog'i xususiyatlarini inobatga oluvchi analitik va buxgalteriya axborot tizimlarini rivojlantirish;
- moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda sun'iy intellekt va neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda tavakkalchiliklarni kamaytirish orqali ularning iqtisodiy o'sishini barqaror ta'minlash uchun zarur ilmiy-amaliy asos yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son. <https://lex.uz/docs/-5421233>
2. National Accounts—Analysis of Main Aggregates. 2019. Available online: <https://unstats.un.org/unsd/snaama/> (accessed on 1 September 2020).
3. Acharya, V. V., Imbierowicz, B., Steffen, S., & Teichmann, D. (2020). Does the lack of financial stability impair the transmission of monetary policy?. *Journal of Financial Economics*, 138(2), 342-365.
4. Adrian, Tomas, Dell'Ariccia Giovanni, Haksar Vikram, and Tomammaso Mancini-Griffoli. 2018. Monetary Policy and Financial Stability. In *Advancing the Frontiers of Monetary Policy*. Washington, DC: International Monetary Fund.
5. Leva, Maria Chiara, Balfe Nora, McAleer Brian, and Michael Rocke. 2017. Risk registers: Structuring data collection to develop risk intelligence. *Safety Science* 100: 143–56.
6. Afonso, Antonio, Baxa Jaromir, and Michal Slavik. 2018. Fiscal developments and financial stress: A threshold VAR analysis. *Empirical Economics* 54: 395–423.
7. Singh, Sujit, Olugu Ezutah Udony, Musa Siti Nurmaya, and Abu Bakar Mahat. 2018. Fuzzy-based sustainability evaluation method for manufacturing SMEs using balanced scorecard framework. *Journal of Intelligent Manufacturing* 29: 1–18.
8. Agénor, Pierre-Richard, and Luiz Pereira da Silva. 2017. Cyclically adjusted provisions and financial stability. *Journal of Financial Stability* 28: 143–62.
9. Culpeper, Roy. 2018. Systemic reform at a standstill: A flock of "Gs" in search of global financial stability. In *Critical Issues in International Financial Reform*. London: Routledge, pp. 203–36.
10. Chang, Chia-Lin, McAleer Michael, and Wing Keung Wong. 2018. Management Information, Decision Sciences, and Financial Economics: A Connection (No. TI 2018-004/III). Tinbergen Institute Discussion Paper. Available online: <https://www.econstor.eu/handle/10419/177694>